

Sport tan va ruh quvvati

TIQXMMI “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakulteti 2020-2021-o’quv yili 1-kurs talabalari o’rtasida 2020-yil 3-noyabr kuni Institut sport majmuasida “Sport sog’lik garovi” shiori ostida sportning Mini-futbol turi bo’yicha fakultet dekani kubogi sport musobaqasi o’tkazildi. Tadbirni yuqori saviyada tashkil etishdan maqsad talaba yoshlarni bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish, jismonan sog’lom, ma’nан yetuk inson sifatida voyaga yetishiga yordam beradi. Tadbirda fakultetning yoshlari bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinosbosari O.Ro'ziboev, “Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi murabbiylari, guruh murabbiylari, fakultet “Yoshlar ittifoqi” yetakchilari faol ishtirok etishdi. Musobaqa murosasiz ko’taringki ruhda, faol tarzda o’tdi. Musobaqa yakuni bo'yicha “SXMIM” ta’lim yo’nalishi 105-guruh futbolchilari 1-o'rinni qo'lga kiritdilar, 2-o'rinni “SXMIM” ta’lim yo’nalishi 102-guruh futbolchilari qo'lga kiritdilar, 3-o'rinni “SXMIM” ta’lim yo’nalishi 101-guruh futbolchilari qo'lga kiritdilar.



TIQXMMI matbuot xizmati